

MILLIY VALYUTA KURSI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MARKAZIY BANK SIYOSATINING O'RNI VA MEXANIZMLARI

O'rinboyev Suhrobbek Anvarjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti Muhandislik

iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti Bank ishi va auditi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda Markaziy bankning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati, shuningdek, bu jarayonda qo'llaniladigan mexanizmlar chuqur tahlil qilinadi. Valyuta kursining makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya va tashqi savdo balansiga ta'siri, Markaziy bankning monetar va valyuta siyosati orqali kursni tartibga solish amaliyoti ilmiy-nazariy yondashuvlar va aniq statistik ma'lumotlar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy bank, valyuta kursi, milliy valyuta, monetar siyosat, inflyatsiya, makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi savdo balansi.

Introduction: The stable development of any country's economy largely depends on ensuring the stability of its national currency exchange rate. The exchange rate of the national currency not only determines the internal economic balance but also plays a key role in the effectiveness of international economic relations. In this regard, the Central Bank acts as the main regulatory authority, shaping and implementing monetary and exchange rate policies.

Keywords: Central Bank, exchange rate, national currency, monetary policy, inflation, macroeconomic stability, trade balance.

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro valyuta munosabatlari bozor va davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Valyuta bozorida valyutaning talab va taklifi hamda ularning kurslari nisbati shakllanadi. Bozor tomonidan tartibga solish qiymat qonuni, talab va taklif qonunlariga bo'ysunadi.

Valyuta bozorlarida raqobatchilik sharoitida bu qonunlarning harakati valyuta almashuvining harakati nisbiy tenglik tovarlar, xizmatlar, kapitallar hamda kreditlar harakati bilan bog'liq bo'lgan jahon xo'jaligining xalqaro valyuta ehtiyojlari oqimlarining muvofiqligini ta'minlaydi. Bozorlardagi baholar mexanizmi va valyuta kurslarining o'zgarishi sabablari orqali iqtisodiy agentlar valyuta xaridorlarining ehtiyojlari va taklifining imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot oladilar. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi qonuni 3-moddasida quyidagilar ta'kidlab o'tilgan:

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat. Asosiy vazifalari:

monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;¹


ASOSIY QISM

Aksariyat rivojlangan, industrial mamlakatlarda Markaziy bank pul-kredit siyosatini yurituvchi asosiy organ sanaladi. Markaziy bankning pul-kredit va valyuta siyosati birlamchi hisoblanadi. Demak, Markaziy bankning valyuta siyosati pul-kredit siyosatining asosiy klassik instrumentlaridan biri bo'lib, mamlakatdagi valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi va amalga oshiruvchi tadbirlarning majmuyidir. valyuta siyosati o'zi ham maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1-rasm

¹ O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonun

Valyuta siyosati



Markaziy Bankning vazifalaridan biri – milliy valyutaning kursini nazorat qilish va uning barqarorligini ta'minlashdir. Milliy valyuta kursining barqarorligi nafaqat ichki iqtisodiy muvozanatni, balki mamlakatning xalqaro bozordagi o'rnini ham belgilaydi. Markaziy Bankning siyosati, asosan, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya darajasini boshqarish va valyuta kursini stabilizatsiya qilishga yo'naltirilgan.

Valyuta kursi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligi, investitsion jozibadorligi va aholi real daromadlari bilan bevosita bog'liq. Kursdagi keskin o'zgarishlar inflyatsiya darajasiga, import-eksport balansiga va hatto iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi.


Markaziy bank valyuta kursi dinamikasini kuzatib borish va uni me'yoriy darajada ushlab turish maqsadida bir qator samarali mexanizmlardan foydalanadi. Misol uchun:

Monetar siyosat vositalari

1. *Monetar siyosat* — milliy iqtisodiyotni pul-kredit usullari orqali tartibga solishdir. Milliy valyutaning kursi bevosita pul massasining hajmi va bank tizimidagi foiz stavkalari bilan uzviy bog'liq

2. *Valyuta intervensiyasi* — Markaziy bank tomonidan valyuta bozorida bevosita xorijiy valyutani sotib olish yoki sotish shaklida amalga oshiriladigan operatsiyalardir.

Bu jarayon orqali bozor kon'yunkturasiga ta'sir ko'rsatiladi va valyuta kursi haddan tashqari tebranishlardan himoya qilinadi.



- Agar milliy valyutaga bosim oshsa va uning qadri tushayotgan bo'lsa, Markaziy bank o'zining valyuta zaxiralaridan xorijiy valyutani sotadi.

- Aksincha, valyuta taklifi ortib, so'm qadrsizlanishdan ko'ra mustahkamlanayotgan bo'lsa, Markaziy bank ortiqcha valyutani bozor orqali sotib olib, kursni me'yoriy diapazonda ushlab turadi.

3. *Kommunikatsion siyosat* - Markaziy bankning ochiq va shaffof ma'lumot siyosati valyuta bozorida ishtirokchilarning kutishlari va ehtimoliy xavotirlarini kamaytirishga yordam beradi. Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadlari, foiz stavkalari bo'yicha qarorlar, inflyatsion prognozlar va valyuta intervensiyalari haqida muntazam ravishda rasmiy axborotlar tarqatish orqali bozorning psixologik barqarorligi ta'minlanadi.

2-rasm

AQSh dollarining milliy valyutaga nisbatan almashuv kursi dinamikasi

2023-yil davomida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi **11 263-12 390 so'm** diapazonida shakllanib, **9,8** foizga qadrsizlangan bo'lsa, real samarali almashuv kursi yil boshiga nisbatan **0,8** foizga mustahkamlangani holda barqaror darajada saqlanib qoldi. ²

² Markaziy bank 2024-yilgi Yillik xisoboti

Shuningdek, ushbu yil davomida valyutani tartibga solish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va ularni iqtisodiy jarayonlarga muvofiqlashtirish ishlari doirasida sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarga ayrim o'zgartirishlar kiritilib, rezidentlar va norezidentlar uchun ichki valyuta bozorida chet el valyutasini xarid qilish va ulardan foydalanish borasida qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Markaziy Bank milliy valyuta kursi keskin o'zgarib ketganida bozorga aralashadi va zaxiralardan foydalanib, valyutani sotib yoki sotish orqali kursni barqarorlashtiradi. Bu aralashuv o'zgarishlarga javoban amalga oshiriladi va kursning tez o'zgarishini oldini olishga yordam beradi. Foiz stavkalarini boshqarish orqali Markaziy Bank pul ta'minotini nazorat qiladi. Yuksak foiz stavkasi pulni jalb qiladi va uning qiymatini barqarorlashtiradi. Past foiz stavkasi esa iqtisodiyotni rag'batlantirishi mumkin, lekin bu valyutani qadrsizlantirishi ehtimoli bor. **Pul massasi nazorati:** Markaziy Bank pul massasi miqdorini boshqarish orqali inflyatsiyani nazorat qiladi va milliy valyutaning qadrsizlanishining oldini oladi. Bu, o'z navbatida, valyuta kursining barqarorligini saqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/acts/-72266>. "Markaziy bank to'grisida"gi qonun
2. Парвони М. Pul-kredit siyosatini tahlil qilish //Nordic_Press. – 2024. – T. 2. – №. 0002.
3. Ergash o'g'li P. V. PUL-KREDIT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI //MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 35-39.
4. Markaziy bank yillik hisoboti 2024-yil.